

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MILLIY GVARDIYASI**

**HARBIY-TEXNIK INSTITUTI**



**HARBIY VATANPARVARLIK – YUKSAK  
ISHONCH VA SADOQAT TIMSOLI**  
**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**



**TOSHKENT - 2020**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MILLIY GVARDIYASI**

**HARBIY-TEXNIK INSTITUTI**



**HARBIY VATANPARVARLIK – YUKSAK  
ISHONCH VA SADOQAT TIMSOLI**  
**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya  
materillari to‘plami**

2020 yil 11-yanvar

**TOSHKENT – 2020**

**KBK-26.6****O‘- 23**

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik institutining Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. (2020 yil \_\_\_\_\_-sonli bayonnomma)

<b>Mas’ul muharrir:</b>	<b>Abduxalikov S.</b> falsafa fanlari doktori, professor v.v.b.
<b>Tahrir hayatı a’zolari:</b>	<b>Xudoyqulov Y.A.</b> falsafa fanlari nomzodi, dotsent v.v.b. <b>Yusupova D.D.</b> falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
<b>Taqrizchilar:</b>	<b>Musayev F.A.</b> falsafa fanlari doktori, professor v.v.b. <b>Raximov J.</b> pedagogika fanlari nomzodi, dotsent v.v.b.

**Harbiy vatanparvarlik – yuksak ishonch va sadoqat timsoli.** //Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. –T., 2020 y. 539 bet.

Mazkur ilmiy-amaliy konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019 yil 13 dekabrda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 28 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №F – 5529 farmoyishi ijrosini ta’minlash maqsadiga bag‘ishlangan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri – bu albatta fuqarolarda, ayniqsa, yoshlarda vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlikni shakllantirish hisoblanadi. To‘plamda vatanparvarlik va harbiy vatanparvarlikni shakllantirish borasida soha mutaxassislari va olimlar, magistr, kursant va bakalavrлarning nazariy va ilmiy-amaliy fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalari berilgan.

To‘plam gumanitar va ijtimoiy fanlar sohasi olimlari, professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar uchun mo‘ljallangan.

To‘plamga kiritilgan g‘oya va fikrlar, foydalanilgan misol va ma’lumotlarning aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar.

© O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2020.

qiluvchilar hamisha bo'lgan, bundan keyin ham bo'lishi mumkin. Karvon bexatar bo'lmas, degan gap bejiz aytilmagan. Ammo xalq karvonini hech qanday kuch ortga qaytarolmaydi. Nega, deganda, xalqning qalbida ne-ne avlodlardan meros yengilmas kuch – ma'naviyat bor».

Alloh taolo yurtimizni tinch, xalqimiz hayotini farovon qilsin. O'zimizni ham surriyotlarimizni ham Vatanga muhabbatli, dinga sadoqatli, millatni sevadigan, omonatlarga xiyonat qilmaydigan, ilmlik, halolga intilib, haromdan uzoq bo'lib, barchaga muhabbatli bo'lib yashamoqlikni nasib qilsin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" T. Ma'naviyat. 2008.
2. R.Shamsutdinov, X.Mo'minov "O'zbekiston tarixi". T., "Sharq", 2013
3. Dunyo siyosat jamiyati 9-nashri.

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHNINING ASOSI**

**Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li**  
O'zMU "Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi"  
kafedrasi magistranti

Bugungi kunda millatlararo totuvlik - bu eng avvalo, har qanday davlatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlovchi eng muhim omillardan biridir. Tarixdan ma'lumki, mamlakatimizda turli madaniyat va sivilizatsiyalar vakillari – turli xalqlar, etnik guruhlar aralashib, do'stlik va hamjihatlikda yashab O'zbekistonni Vatan tutganlar. Ularning hozirgi avlodlari uchun O'zbekiston ona-Vatanga aylandi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan<sup>1</sup>. Bugungi kunda mamlakatimizda 136 millat va elat, 138 madaniy markaz vakillari yagona oila farzandlaridek yashab, mehnat qilib kelmoqda. Ularning O'zbekiston qonunlarida belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklari, manfaatlari to'liq ta'minlangan. O'zbekistonning davlat suvereniteti, barcha millatlarning rivojlanishiga teng imkoniyat yaratib bergen va bu Konstitutsiyada ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, Konstitutsiyamizning 8-moddasida: "O'zbekiston xalqini, millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi"<sup>2</sup> degan qoida belgilanib qo'yilgani fikrimiz isbotidir.

Shuningdek, mamlakatimizda turli millat vakillarining tinchlik-totuvligini ta'minlanganligi, ularning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish huquqiga ega ekanliklari bosh qomusimizning 18-moddasida quyidagicha mustahkamlab qo'yilgan: "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklariga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar"<sup>3</sup>.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston turli millatga mansub odamlar yuz yillar mobaynida bir oila kabi inoq yashab kelayotgan, dini, irqi va millatidan qat'iy nazar, inson sharaflanadigan bag'rikeng mamlakatdir. Ayni shu zaminda yuz yillar davomida dunyo madaniyatining katta miqyosdagi bir-birini boyitish jarayoni ro'y bergen. Masalan, yurtimizda tavallud topgan I.Kalantarov, Yu.Ishoqov, L.Aronova,

<sup>1</sup> "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2017 yil 19 may, PF-5046-son

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: "O'zbekiston", 2018, 6-b.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: "O'zbekiston", 2018, 9-b.

M.Koziyev, B.Pinjasov, N.Mallayev kabi fan va madaniyat arboblari, Manas Leviyev, Sulaymon Yudakov kabi bastakorlar, Yusuf Yelizarov singari rassomlar, O'zbekiston xalq artistlari Billur Davidova, Isohor Oqilov, Maryam Yoqubova va boshqalar turli millatga mansub ekani, ular madaniyatimiz ravnaqiga kata ulush qo'shgani bu fikrimizga dalil bo'la oladi.

Bugun yurtimizda barcha millat va elat vakillari tinch-totuv, farovon hayot kechirmoqda, kelajagi buyuk O'zbekistonning bugungi taraqqiyoti ertangi istiqboliga munosib hissa qo'shmoqda. Ularning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ta'lif olishlari, o'z qiziqish va layoqatlari bo'yicha kasb-hunar egallashlari, madaniyatlari, urf-odatlari, an'analarini saqlash hamda rivojlantirishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. "O'zbekiston o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilishni ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi"<sup>1</sup> –deyiladi Konstitutsiyamizning 4-moddasida.

2017 yilning 24-yanvar kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yurtimizda millatlararo do'stlik va totuvlikni mustahkamlash, jamiyatimizda turli millat va elat vakillari o'rtasida hukm surayotgan o'zaro hamjihatlik va mehr-oqibat muhitini asrash, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda milliy madaniy markazlar faoliyatini rivojlantirish borasidagi katta xizmatlari uchun "Respublika Baynalmilal madaniyat markazining 25-yilligi munosabati bilan milliy madaniy markazlarning bir guruh faollarini mukofotlash to'g'risida"gi Farmonlari qabul qilindi<sup>2</sup>.

2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi va amalga oshirilishi, biz yashayotgan bugungi davrning o'zi davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakat atrofida xavfsizlik, barqarorlik va yaqin

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:“O'zbekiston”, 2018, 4-b.

<sup>2</sup>"Respublika Baynalmilal madaniyat markazining 25-yilligi munosabati bilan milliy madaniy markazlarning bir guruh faollarini mukofotlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2017 yil 24-yanvar

qo'shnichilik muhitini yaratishga qaratilgan puxta o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy siyosatni yuritish, shuningdek, aholi, ayniqsa, yoshlar ongida insonparvarlik qadriyatlarini, turli millat vakillari o'rtasida o'zaro hamjihatlikni yanada mustahkamlash, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan izchil siyosatimiz tufayli yurtimizda tinchlik, totuvlik va o'zaro hamkorlik tobora mustahkamlanib bormoqda.

Hozirgi kunda respublikamizdagi oliy o'quv yurtlarida turli millatga mansub talabalar tahsil olmoqda. Dunyoning kamdan-kam mamlakatlarida kuzatiladigan yana bir holat shuki, O'zbekistonda ta'lim yetti tilda olib boriladi. Bular sirasiga o'zbek va qoraqalpoq tillaridan tashqari rus, qozoq, turkman, tojik va qirg'iz tillarini kiritishimiz mumkin. Yana bir diqqatga molik jihat – respublikamizdagi ommaviy axborot nashrlari ham turfa tillarda chop etiladi, qardosh xalqlar tilida radio va teleko'rsatuvalar tayyorlanib efirga berilayotgani yurtimizda millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Respublikamizda yashovchi boshqa millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilish, ular haqida hech qanday cheklovchi qoidalar yo'qligi hamda ularni himoya qilish va rivojlanishiga olib keluvchi turli jarayonlarni yaratish, tadbirlarini belgilash bilan amalga oshrilib kelinmoqda. Masalan, poytaxtimiz bo'ylab sayr qilsangiz, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy haykallari qatorida Ganjaviy, Rustaveli, Pushkin, Shevchenkolarning haykallari ham ko'cha va maydonlarimizga fayz baxsh etib turganini guvohi bo'lamiz. Bularning bari dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlik namoyishidir.

Respublikamizning millatlararo totuvlikni mustahkamlash borasidagi tajribasi jahonning ko'pgina mamlakatlarida qiziqish bilan o'rganilmoqda. Xorij matbuoti, taniqli siyosatchi va rahbarlar O'zbekistonning milliy siyosatiga yuksak baho berishmoqda. Dunyoning ba'zi davlatlarida milliy-etnik munosabatlar murakkablashib, ayrim davlatlarda milliy etnik munosabatlar murakkablashib, ayrim davlatlarda ham oz sonli millat vakillarini kamsitish holatlari kuzatilayotgan bir

paytda, hamjihatlik, hamkorlikda yagona oila farzandlaridek inoq yashayotgan O'zbekiston chindan ham bugun boshqalarga namuna bo'lishi shubhasiz.

Muxtasar qilib aytganda, mamlakatimizda milliy madaniy rang-baranglik hayotimizning ajralmas qismiga aylangani barqarorlikni ta'minlashda, jamiyatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonning millatlararo munosabatlarni mustahkamlash borasidagi katta tajribasi butun dunyoda keng e'tirof etilmoqda, ko'plab mamlakatlar uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:“O'zbekiston”, 2018
2. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son
3. “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2017 yil 19 may, PF-5046-son
4. “Respublika Baynalmilal madaniyat markazining 25-yilligi munosabati bilan milliy madaniy markazlarning bir guruh faollarini mukofotlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2017 yil 24-yanvar

## **KONSULTATIV JARAYONDA MIJOZ BILAN ISHLASHNING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Xudoynazarov Sardor Jamoliddin o`g`li**  
**O'zbekiston Milliy universiteti magistri**

Mazkur maqola ham mijoz-konsultant tizimidagi etnopsixologik xususiyatlarni yoritishga bag`ishlangan bo`lib mijoz deganda faqatgina konkret shaxs emas balki odamlar jamoasi, korxonalar, ishlab chiqarish obyektlari bilan olib boriladigan konsultativ ishlarning xususiyatlarini nazarda tutadi[1]. Insoniyat tomonidan o'rganilgan va o'rganilayotgan barcha tadqiqotlar markazida inson hamda uning moxiyati mazmunini anglash masalasi yotadi. Inson muammosi azaldan

		ижтимоий – психологик хусусиятлари	
104	Mahkamova L.M.	Insult bilan hastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasining o'ziga xos xususiyatlari	425-429
105	Нажимидинова Д	Николай Кузанскийнинг “илмсиз билим” концепцияси	429-431
106	Seytmurodov N.	Platon falsafasining asosiy mohiyati haqida	431-436
107	Ўқтамова Ё.	Ўсмирларда ўзини ўзи идрок этишнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари	436-439
108	Panjizoda H.	Nogiron bolalar-o'quvchilarni ijtimoiy hayotga moslashtirishda inklyuziv ta'limnining ahamiyati	439-442
109	Qodirov J.	The importance of culture in the process of socialization of human ontology	442-445
110	Ro'ziboyeva Z.A.	Maktabgacha yoshdag'i bola shaxsining rivojlanishiga chet tillarini o'rganishning ta'siri	445-448
111	Sultanov O.S.	O'zbekiston oliy ta'lim talaba-yoshlarida harbiy vatanparvarlik burchini rivojlantirish	448-452
112	Талипова Ф.	Мактабгача ёшдаги болаларда мустакил фикрлашни ривожлантиришнинг ўзига хос психологик хусусиятлари	452-456
113	Толибжонова Л.	Ўзбек классик мусиқасининг фалсафий тамойилларига доир	456-465
114	Jumayev S.S. Turg'unov S.T.	Ta'lim tizimida yoshlarni huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlatning asosiy funksiyasi sifatida	465-469
115	Xoliqov L.M.	O'zbekiston respublikasi konstitutsiyası millatlararo totuvlikni ta'minlashnining asosi	470-474
116	Xudoynazarov S.J.	Konsultativ jarayonda mijoz bilan ishlashning etnopsixologik xususiyatlari	474-475
117	Йўлдошов Ш.	Ёшлар сиёсий ижтимоийлашувининг хукукий-маданий омиллари	475-478
118	Yusupova Sh.Sh.	Maktabgacha yoshda bolaning o'zini-o'zi anglashning psixologik xususiyatlari	478-481
119	G'afforova Z.	Estetik munosabatlarning falsafiy tahlili	481-483
120	Камалходжаева Л.	Коллеж ўкувчиларида оила типи тўғрисидаги тасаввурларининг шаклланиши	483-487
121	Мажидова В.	Кичик гурӯхларда шахслараро муносабатларнинг ижтимоий-психологик томонлари	487-490